

KASBIY STANDART

Gaz xo'jaligi iste'molchilariga xizmat ko'rsatuvchilar

Reyestr raqami:

QR kod

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Ushbu kasbiy standart gaz ta'minoti sohasidagi kasbiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqilgan bo'lib, u respublika miqyosida aholi iste'molchilari, kichik biznes subyektlari, byudjet tashkilotlari hamda yirik sanoat iste'molchilarini tabiiy va suyultirilgan gaz bilan barqaror ta'minlash, gazni yetkazib berish jarayonlarini tashkil etish, shuningdek yetkazib berilgan mahsulotlarni aniq hisobga olish va nazorat qilish bilan bog'liq faoliyat sohalarini to'liq qamrab oladi.

2. Mazkur kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsional-lashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o‘zaro ta‘sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta‘lim – ta‘lim xizmatlari taqdim etilishini ta‘minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo‘naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o‘qitishdagi rasmiy ta‘limga qo‘shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi “Aholi va iqtisodiyotni energiya resurslari bilan barqaror ta‘minlash, neft-gaz tarmog‘ini moliyaviy sog‘lomashtirish va uning boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”ni tashkil qilish to‘g‘risida”gi PQ-4388-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 18-iyundagi “Tabiiy gaz va elektr energiyasini sotish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6010-son Farmoni ;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-sentyabrdagi “Tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish» loyihasini amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4840-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 16-apreldagi “Yoqilg‘i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 204-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi “Elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydalanish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 319-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabr “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-345-son Qarori;

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo‘llaniladi:

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi.

AJ – Aksiyadorlik jamiyati.

GTF – Gaz ta‘minoti filiali.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Gaz xo'jaligi iste'molchilariga xizmat ko'rsatuvchilar	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Gaz ta'minoti tizimlari va gaz jihozlariga texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va xavfsiz foydalanishni ta'minlash	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	D-syeksiya. Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 35—Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 35.2 — Gazsimon yoqilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash. 35.23 — Uzatish quvurlari orqali gazsimon yoqilg'ini sotish 35.23.0. — Uzatish quvurlari orqali gazsimon yoqilg'ini sotish	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Gaz xo'jaligi iste'molchilariga xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning mehnat faoliyatini tartibga solish, gaz tarmoqlari va gaz jihozlarini nazorat qilish, ularga texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, suyultirilgan gaz ballonlarni to'ldirish, gazdan foydalanishda xavfsizlik talablariga rioya etilishini ta'minlash, o'lchash vositalarining aniqligi va ishonchliligini nazorat qilish	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		31340001 Gaz tarmoqlarini nazorat qiluvchi chilangar	2
		75490002 Ballonlarni to'ldiruvchi	2
		75439 Mahalla gazchisi	5
		21415003 Metrologiya bo'yicha muhandis	6

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	31340001 — Gaz tarmoqlarini nazorat qiluvchi chilangar	A1.2	Gaz tarmoqlariga xizmat ko'rsatish	A1.01.2	Gaz tarmoqlarini texnik holatini kuzatuvdan o'tkazish
				A1.02.2	Gaz tarmoq va uskunalarini almashtirishda chilangarlik ishlarni bajarish
		A2.2	Gaz tarmoq va uskunalarini ta'mirlash va sinash	A2.01.2	Gaz tarmoqlari qismlariga texnik xizmat ko'rsatish
				A2.02.2	Gaz tarmoqlari va uskunalari qismlarini diagnostika qilish
		A3.2	Gaz jihozlariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash	A3.01.2	Gaz tarmoqlari va uskunalari qismlarini ta'mirlash
				A3.02.2	Gaz tarmoqlari va uskunalarini sinovdan o'tkazish va foydalanishga qabul qilish
2	75490002 — Ballonlarni to'ldiruvchi	B1.2	Gaz ballonlarni suyultirilgan gaz bilan to'ldirish	B1.01.2	Gaz quyish shoxobchalarining sig'imlariga suyultirilgan gazni qabul qilib olish
				B1.02.2	Gaz ballonlarni suyultirilgan gaz bilan to'ldirish
		B2.2	Gaz to'ldirish shoxobchalarining jihoz va uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish	B2.01.2	Gaz to'ldirish shoxobchalarida suyultirilgan gazni gaz ballonlarga quyish
				B2.02.2	Gaz to'ldirish shoxobchalarida texnologik jihoz va uskunalariga xizmat ko'rsatish
3	75439 — Mahalla gazchisi	D1.5	Yetkazib berilgan tabiiy gaz hajmini hisobini yuritish	D1.01.5	Iste'molchilarga yetkazib berilgan tabiiy gaz hajmlarini hisobini yuritish
				D1.02.5	Iste'molchilar tomonidan tabiiy gazdan oqilona foydalanishni nazorat qilish
		D2.5	Iste'molchilarga yetkazib berilgan tabiiy gaz hajmlarini hisobi va monitoringini yuritish	D2.01.5	Iste'molchilarga yetkazib berilgan tabiiy gaz hajmlarini hisobotlarini shakllantirish va iste'mol hajmlarini monitoringini yuritish
				D2.02.5	Iste'molchilar tomonidan tabiiy gazdan oqilona foydalanishni nazorat qilish, tabiiy gazdan nooqilona yoki noqonuniy foydalanishlariga yo'l qo'ymaslik

		D3.5	Tabiiy gaz hisobini yuritish va oqilona foydalanishni nazorat qilish	D3.01.5	Iste'molchilarga yetkazib berilgan tabiiy gaz hajmlarini hisobotlarini yuritish
				D3.02.5	Iste'molchilar tomonidan tabiiy gazdan oqilona foydalanishni nazorat qilish, tabiiy gazdan nooqilona yoki noqonuniy foydalangan iste'molchilarni aniqlash.
4	21415003- Metrologiya bo'yicha muhandis (Gaz xo'jaligi iste'molchilariga xizmat ko'rsatish sohasida)	E1.6	O'lchov nazorat pribor va avtomatika vositalari bilan ishlash	E1.01.6	O'lchov nazorat priborlarni ishlatish texnologik jarayonlarda to'g'ri qo'llash
				E1.02.6	O'rta murakkab darajasidagi sxemalarni ishlatish
		E2.6	Avtomatik qurilmalar va nazorat o'lchov asboblari soz holatda ishlashini nazorat qilish	E2.01.6	Nosozlik sababini aniqlash va bartaraf qilish bo'yicha o'rnatilgan tartibda ishlarni tashkil qilish
				E2.02.6	Avtomatik qurilmalar va nazorat o'lchov asboblari yordamida tashxislash
		E3.6	Avtomatika qurilmalar va nazorat o'lchov asboblari texnik xizmat ko'rsatish	E3.01.6	Avtomatik qurilma va o'lchov – nazorat vositalarni ishlatish uchun sharoit yaratib berish
				E3.02.6	Ta'mirlangan o'lchov nazorat vositalarni va avtomatik uskunalarni ishlashini nazorat qilish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Gaz tarmoqlarini nazorat qiluvchi chilangar	
Mashg'ulot nomining kodi:	31340	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	2	
Malakani baholashga qo'yiladigan talabalar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Gaz ta'minoti tizimlari tuzilishi va ishlash prinsipini bilish, gaz uskunalarini o'rnatish, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishni bilish, gaz chiqishini aniqlash va bartaraf etish usullarini qo'llay olish, o'lchov asboblari (manometr, gazoanalizator) bilan ishlay olish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	1) umumiy o'rta ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	2) tayanch o'rta ta'lim + ish joyida qisqa muddatli o'qitish (instruktaj) yoki qisqa muddatli kurslar yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	71261002 — Gaz tizimlari bilan ishlovchi chilangar	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	5	Gaz jihozlarini ta'mirlash va xizmat ko'rsatish ustasi

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.2 — Gaz tarmoqlariga xizmat ko'rsatish	A1.01.2 — Gaz tarmoqlarini texnik holatini kuzatuvdan o'tkazish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Gaz quvurlari, krani va ventillarni muntazam tekshirish.
		2. Gaz chiqishi, oqish va germetiklikni tekshirish (sovunli eritma yoki maxsus detektorlar bilan).
		3. Sizib chiqish yoki avariya holatlarini aniqlash va xabar berish.
		Ko'nikmalar:
		Gaz quvurlari va armaturalarini montaj, demontaj qilish va ta'mirlash.
		Gaz ventillari, kranlar va filtrlarni sozlash va almashtirish.
		Gaz chiqishi va germetiklikni tekshirish usullarini bilish (sovunli eritma, gaz detektor).

		Bilimlar:
		Gaz quvurlari turlari (tashqi, ichki, yer osti va yer usti quvurlari).
		Ventillar, kranlar, filtrlar va armaturalarning tuzilishi va ishlash prinsipi.
		Gaz hisoblagichlar (schyotchiklar) turlari va ularning ishlash tamoyili.
	A1.02.2 — Gaz tarmoq va uskunalarini almashtirishda chilangarlik ishlarni bajarish	Mehnat harakatlari:
		1. Gaz quvurlarida kichik ta'mir ishlarini amalga oshirish
		2. Quvurlar yoki armaturalar ichidagi kir va zanglarni tozalash.
		3. Gaz jihozlariga profilaktika xizmatlarini o'tkazish.
		Ko'nikmalar:
		Gaz bosimi, harorati va oqimini o'lchaydigan asboblarni ishlatish.
		Gaz hisoblagichlar (schyotchiklar)ni to'g'ri o'rnatish va tekshirish.
		Nazorat asboblari xatoliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish.
		Bilimlar:
		Tabiiy gazning zichligi, bosimi, harorati va yonish xususiyatlari.
		Gazning xavfli va yondiruvchi xossalari, portlash xavfi.
		Gaz oqimini hisoblash va tahlil qilishning asosiy qoidalari.
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Ventillar, filtrlar va armaturalarni to'g'ri o'rnatish va ta'mirlash.
		2. Nosozliklarni o'z vaqtida aniqlash va avariya xizmatini xabardor qilish.
		3. Gaz quvurlarini profilaktikadan o'tkazish.
A2.2 — Gaz tarmoq va uskunalarini ta'mirlash va sinash	A2.01.2 — Gaz tarmoqlari qismlariga texnik xizmat ko'rsatish	Mehnat harakatlari:
		1. Ventillar, kranlar va filtrlarni to'g'ri o'rnatish va sozlash.
		2. Gaz o'lchagich (schyotchik) va boshqa nazorat asboblarni to'g'ri o'rnatish va tekshirish.
		3. Gaz tarmoqlarini montaj va demontaj ishlarini bajarish.
		Ko'nikmalar:
		Gaz bilan ishlashda texnika xavfsizligi qoidalari to'liq bilish.
		Gaz chiqishi yoki avariya holatlarida tezkor harakat qilish.
		Yondiruvchi qurilmalar va ventilyatsiya tizimlari bilan ishlash.
		Bilimlar:
		Gaz bilan ishlashda texnika xavfsizligi va sanoat xavfsizligi qoidalari.
		Avariya holatlarida tezkor choralar ko'rish (gazni yopish, evakuatsiya qilish).
		Gaz chiqishini aniqlash usullari (sovunli eritma, gaz analizatorlari).
		Mehnat harakatlari:
		1. Aniqlangan nosozliklar va bajarilgan ishlar bo'yicha hisobot berish.

	A2.02.2 — Gaz tarmoqlari va uskunalari qismlarini diagnostika qilish	2. Tekshirish natijalarini qayd etish (jurnal yoki elektron dasturda).
		3. Gaz uskunalari ishchi holatda saqlash uchun mustaqil profilaktika ishlarini bajarish.
		Ko'nikmalar:
		Nosozliklarni aniqlash va mustaqil hal qilish.
		Gaz tarmoqlarida yuzaga kelgan ta'mir talablarini baholash va chora ko'rish.
		Chuqur diagnostika qilish va ta'mir rejasi tayyorlash.
		Bilimlar:
		Quvurlardagi nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish usullari.
		Gaz jihozlarini profilaktika rejalari va texnik xizmat ko'rsatish.
		To'siqlar va yopish mexanizmlarini ta'mirlash usullari.
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Tekshiruv natijalarini jurnalga yozish.
		2. Aniqlangan nosozlik va qilingan ta'mir haqida hisobot berish.
		3. Quvurda kichik ta'mir ishlarini mustaqil amalga oshirish.
A3.2 Gaz tarmoqlariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash	A3.01.2 — Gaz tarmoqlari va uskunalari qismlarini ta'mirlash	Mehnat harakatlari:
		1. Gaz bilan ishlashda xavfsizlik qoidalariga qat'iy amal qilish.
		2. Oqish yoki avariya holatlarida tezkor choralar ko'rish (gazni yopish, avariya xizmatiga xabar berish).
		3. Gaz muhitini nazorat qilish va zararli holatlar oldini olish.
		Ko'nikmalar:
		Gaz tarmoqlarini tekshirish natijalarini jurnal yoki aktlarda qayd etish.
		Avariya yoki ta'mir ishlari bo'yicha hisobot tayyorlash.
		Asboblarning texnik holati bo'yicha qaydlar yuritish.
		Bilimlar:
		Manometr, termometr va datchiklar bilan ishlash asoslari.
	A3.02.2 — Gaz tarmoqlari va uskunalari sinovdan o'tkazish va foydalanishga qabul qilish	Gaz hisoblagichlar va o'lchash uskunalari tekshirish va sozlash qoidalar.
		O'lchash natijalarini tahlil qilish va xulosa chiqarish.
		Mehnat harakatlari:
		1. Gaz quvurlari, uskunalarni va jihozlarni ko'rikdan o'takazish.
		2. Gaz sizishi holatlarini aniqlash
		3. Avariya holatlarini aniqlash va xabar berish.
		Ko'nikmalar:
		Texnik guruh va avariya xizmati bilan muvofiq harakat qilish.
		Gazchi muhandis yoki metrologlar bilan o'zaro hamkorlik.
		Mijozlar bilan muloqotda xavfsizlik talablarini tushuntirish.
	Mas'uliyat va mustaqillik:	Bilimlar:
		Gaz ta'minoti sohasidagi davlat standartlari (O'z DST, GOST).
		Mahalliy va davlat metrologik nazorat qoidalar.
		Gaz tarmoqlarini ekspluatatsiya qilish bo'yicha yo'riqnomalar.
		1. Gaz chiqishi aniqlanganda tezkor choralar ko'rish.
		2. Gazni yopish va xavfli hududdagi odamlarni evakuatsiya qilish.

		3. Nosozliklarni aniqlaganda muhandis yoki ustani kutmasdan joriy ta'mirni boshlash.
Texnik va/yoki texnologik talab		Gaz tarmoqlarini rejali va navbatdan tashqari texnik ko'rikdan o'tkazish. Gaz sizib chiqishini gaz analizatorlari va sovunli eritma yordamida aniqlash. Gaz quvurlaridagi bosim, armatura va ulanish joylarining ish holatini tekshirish. Aniqlangan nosozliklarni bartaraf etish yoki yuqori malakali mutaxassisga xabar berish. Gaz ta'minotini vaqtincha to'xtatish va qayta ishga tushirish ishlarini belgilangan tartibda bajarish. Tekshiruv natijalarini dalolatnoma va nazorat jurnallarida rasmiylashtirish.

Kasbning nomi:	Ballonlarni to'ldiruvchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	75490	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	2	
Malakani baholashga qo'yiladigan talabalar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Gaz ballonlarining turlari va ularning texnik xususiyatlarini bilish, ballonlarni to'ldirish uskunolari tuzilishi va ishlash prinsipini bilish, ballon bosimi, hajmi va maksimal to'ldirish me'yorlarini bilish, manometr va boshqa o'lchov asboblardan to'g'ri foydalana olish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	1) umumiy o'rta ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	2) tayanch o'rta ta'lim + ish joyida qisqa muddatli o'qitish (instruktaj) yoki qisqa muddatli kurslar yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	71261004 —Gaz uskunalarini ekspluatatsiya qiluvchi va ta'mirlovchi chilangar	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.2 Gaz ballonlarni suyultirilgan gaz bilan to'ldirish	B1.01.2 — Gaz quyish shoxobchalarining sig'implariga suyultirilgan gazni qabul qilib olish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Bo'sh ballonlarni qabul qilish va tashqi ko'rinishidagi nuqsonlarni tekshirish.
		2. Ballonning pasportini va sifat belgilarini tekshirish.
		3. Ballonning texnik holatini ko'zdan kechirish.
		Ko'nikmalar:
		To'ldirilgan ballonlarni xavfsiz saqlash joyiga joylashtirish.
		Ballonlarni to'g'ri vertikal holatda yoki maxsus shtativlarda saqlash.
		Yuklash va tushirishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish.
		Bilimlar:
		Ballon bosimini to'g'ri o'lchash va tahlil qilish.
		Manometrlar, termometrlar va avtomatik nazorat uskunolari bilan ishlay olish.
		Gaz sizib chiqishi yoki xavfli holatlarda evakuatsiya va avariya choralari.

	Mas’uliyat va mustaqillik:	1. Ballonlarni to’g’ri to’ldirish (me’yordan ortiqcha yoki kam to’ldirmaslik).
		2. Germetiklikni ta’minlash va sizib chiqishni tekshirish.
		3. Ballonlarning texnik holati va ventillarning sozligi uchun javob berish.
	B1.02.2 — Gaz ballonlarni suyultirilgan gaz bilan to’ldirish	Mehnat harakatlari:
		1. Ballonni purjirovka qilish (ichki havo yoki yot gazni chiqarish).
		2. Ballon ventillarini tozalash va sozlash.
		3. Ballonning bosimini va havosiz holatini tekshirish.
		Ko’nikmalar:
		To’ldirish jarayonida yong’in xavfsizligi qoidalariga amal qilish.
		Himoya kiyimlari (qo’lqop, ko’zoynak)dan foydalanish.
		Avariya yoki gaz sizib chiqish holatlarida tezkor chora ko’rish.
		Bilimlar:
		To’ldirish uskunalari, nasoslar va ventillar bilan ishlay olish
		Gaz bosimi va haroratini o’lchash asboblardan foydalanish.
		Ballonlarni germetiklikka tekshirish (sovunli eritma yoki gaz detektorlar).
	Mas’uliyat va mustaqillik:	1. Davlat standartlari (O’z DSt, GOST) talablariga rioya qilish.
		2. To’ldirishda texnika xavfsizligi va yong’in xavfsizligi qoidalariga amal qilish.
		3. Gaz sizib chiqishi yoki avariya holatlarini o’z vaqtida aniqlash.
B2.2 — Gaz to’ldirish shoxobchalarining jihoz va uskunalariga texnik xizmat ko’rsatish	B2.01.2 — Gaz to’ldirish shoxobchalarida suyultirilgan gazni gaz ballonlarga quyish	Mehnat harakatlari:
		1. Ballonni to’ldirish uskunasi ga ulash va ventilni ochish.
		2. Belgilangan me’yorda (sig’imi bo’yicha) gaz bilan to’ldirish.
		3. Bosim va miqdorni nazorat qilish.
		Ko’nikmalar:
		Gaz bilan ishlashda yong’in va sanoat xavfsizligi qoidalariga amal qilish.
		Shaxsiy himoya vositalari (qo’lqop, ko’zoynak, filtr maska)dan foydalanish.
		Gaz sizib chiqishi yoki avariya holatlarida tezkor chora ko’rish.
		Bilimlar:
		To’ldirish me’yorini aniq hisoblash va gaz miqdorini nazorat qilish.
		To’ldirish jarayonida bosim va haroratni to’g’ri baholash.
		Ballonlar pasporti va belgilangan markalarni tekshirish.
	B2.02.2 — Gaz to’ldirish shoxobchalarida	Mehnat harakatlari:
		1. To’ldirilgandan keyin ballonning germetikligini tekshirish (sovunli eritma yoki gaz detektori bilan).

	texnologik jihoz va uskunalariga xizmat ko'rsatish	2. Ballon bosimini o'lchash va normadan oshmasligini tekshirish.
		3. Ballonda yozuv va belgilangan tamg'alarni qayta tiklash.
		Ko'nikmalar:
		To'ldirish uskunalarida kichik nosozliklarni aniqlash va bartaraf qilish.
		Ventillar va klapanlarni sozlash va tozalash.
		Ballonlarni profilaktik ko'rikdan o'tkazish.
		Bilimlar:
		Sanoat gazlari turlari (propan, butan, kislorod, atsetilen va h.k.).
		Gazlarning fizik-kimyoviy xususiyatlari (zichlik, bosim, harorat, yonuvchanlik).
		Gazlarning saqlash va tashish talablari.
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Ballonning texnik holatiga qarab uni qabul qilish yoki rad etish.
		2. To'ldirish jarayonida bosim va miqdorni mustaqil nazorat qilish.
		3. To'ldirishdan oldin ballonlarni mustaqil ko'rikdan o'tkazish.
Texnik va/yoki texnologik talab		Ballonlarni to'ldirish faqat tasdiqlangan texnologik yo'riqnoma asosida amalga oshirilishi. To'ldirishdan oldin ballonning tashqi holati, markirovkasi, texnik ko'rik muddati tekshirilishi. Ballon ichidagi qoldiq gaz va bosim darajasi nazorat qilinishi. To'ldirish jarayonida ballon massasining (netto/brutto) doimiy nazorat qilinishi.

Kasbning nomi:	Mahalla gazchisi	
Mashg'ulot nomining kodi:	75439	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talabalar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Gaz xo'jaligi iste'molchilariga xizmat ko'rsatish sohasida kamida bir yillik ish staji	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Gaz ta'minoti tizimlari tuzilishi va ishlash prinsipini bilish, maishiy va sanoat gaz uskunalarini bilish, gaz hisoblagichlarining turlari va ishlash prinsipini bilish, gaz bosimi, me'yoriy ko'rsatkichlar va gaz sarfi hisob-kitoblarini bilish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	1) o'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	2) boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	Mavjud emas	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	31340002 — Gaz xo'jaligi nazoratchisi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	6	Xizmat boshlig'i

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
D1.5 — Yetkazib berilgan tabiiy gaz hajmini hisobini yuritish	D1.01.5 — Iste'molchilarga yetkazib berilgan tabiiy gaz hajmlarini hisobini yuritish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Hududidagi gaz quvur va gaz hisoblash uskunalarini muntazam ko'zdan kechirish.
		2. Quvurlarda gaz sizib chiqishini aniqlanganda bartaraf etish bo'yicha buyurtma berish
		3. Nosoz holatdagi gaz hisoblash uskunalarini soz holatga keltirish yoki almashtirish bo'yicha ishlar tashkil etish
		Ko'nikmalar:
		Gaz quvurlari, armatura va jihozlarda nosozliklarni aniqlay olish.
		Gaz chiqishini tekshirish
		Gaz bosimi, harorati va oqimini o'lchash uskunalarini bilan ishlay olish.
		Bilimlar:
		Gaz turlari, ularning fizik-kimyoviy xususiyatlari.
		Gaz quvurlari, armatura va jihozlarning tuzilishi va ishlash prinsiplari..
		Gaz bosimi, harorati va oqimi haqida nazariy bilimlar.
		Mehnat harakatlari:

	D1.02.5 — Iste'molchilar tomonidan tabiiy gazdan oqilona foydalanishni nazorat qilish	1. Xonadon va korxonalarda gaz jihozlari va hisoblagichlarning holatini nazorat qilish.
		2. Gazdan xavfsiz foydalanish qoidalariga rioya etilishini tekshirish.
		3. Plombalar va hisoblagichlarda suiste'mol holatlarini aniqlash.
		Ko'nikmalar:
		Tekshiruv aktlari va bayonnomalarini to'g'ri tuzish.
		Gaz hisobotlari va iste'mol ko'rsatkichlarini tahlil qilish.
		Qonunbuzarlik holatlarini rasmiylashtirish va dalillarni hujjatlashtirish.
		Bilimlar:
		Gaz bilan ishlashda texnika xavfsizligi qoidalari.
		Portlash va yong'in xavflarini oldini olish choralari.
		Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish algoritmlari.
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Gazdan noqonuniy foydalanish holatlarini aniqlash.
		2. Ma'muriy choralar ko'rish va tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish.
		3. Davlat standartlari va texnik qoidalarga amal qilinishini nazorat qilish.
D2.5 — Iste'molchilarga yetkazib berilgan tabiiy gaz hajmlarini hisobi va monitoringini yuritish	D2.01.5 — Iste'molchilarga yetkazib berilgan tabiiy gaz hajmlarini hisobotlarini shakllantirish va iste'mol hajmlarini monitoringini yuritish	Mehnat harakatlari:
		1. Tekshiruv natijalarini akt yoki bayonnoma shaklida rasmiylashtirish.
		2. Gaz ta'minoti bilan bog'liq qonunbuzarlik holatlarida rasmiy hujjatlar tayyorlash.
		3. Gaz hisoblari bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish.
		Ko'nikmalar:
		Gaz jihozlari (schyotchiklar, ventillar, plitalar, kolonkalar)ni to'g'ri tekshirish va baholash.
		Germetiklik, plomba holatini aniqlash va tekshirish.
		Texnika xavfsizligiga oid profilaktik ishlar o'tkazish.
		Bilimlar:
		Manometr, termometr, gaz analizatorlari bilan ishlash asoslari.
		Gaz hisoblagichlarning ishlash tamoyili va ularni tekshirish.
		Nazorat asboblarning ishchi holatini baholash va tekshirish.
	D2.02.5 — Iste'molchilar tomonidan tabiiy gazdan oqilona foydalanishni nazorat qilish, tabiiy gazdan nooqilona yoki noqonuniy foydalanishlariga yo'l qo'ymaslik	Mehnat harakatlari:
		1. Gaz sizib chiqishi yoki avariya holatlarida tezkor choralar ko'rish (gazni yopish, evakuatsiya).
		2. Yondiruvchi yoki portlovchi holatlarni oldini olish uchun xizmat ko'rsatish tashkilotlarini jalb qilish.
		3. Iste'molchilarga xavfsizlik bo'yicha ko'rsatmalar berish.
		Ko'nikmalar:
		Gaz chiqishi yoki portlash xavfi holatlarida tezkor chora ko'rish.
		Gaz ta'minotini xavfsiz yopish va odamlarni evakuatsiya qilish.

		Yondiruvchi yoki portlovchi holatlarni bartaraf etish uchun xizmatlarni tashkil qilish.
		Bilimlar:
		Gaz ta'minoti sohasidagi davlat standartlari (O'z DSt, GOST, SNIP va boshqalar).
		Iste'molchilar va korxonalar uchun belgilangan qoidalar va yo'riqnomalar.
	Mas'uliyat va mustaqillik:	Ma'muriy choralar va huquqiy asoslar (gazdan noqonuniy foydalanish holatlarida).
		1. Iste'molchilarga gazdan xavfsiz foydalanish bo'yicha tushuntirish berish.
		2. Avariya yoki xavfli holatlarning oldini olish choralarini amalga oshirish.
		3. Har qanday xavfli vaziyatda tezkor choralar ko'rish.
D3.5 — Tabiiy gaz hisobini yuritish va oqilona foydalanishni nazorat qilish	D3.01.5 — Iste'molchilarga yetkazib berilgan tabiiy gaz hajmlarini hisobotlarini yuritish	Mehnat harakatlari:
		1. Gazdan foydalanishda qoidalar buzilishi holatlarida ma'muriy choralar ko'rish.
		2. Iste'molchilarga gazdan xavfsiz foydalanish bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish.
		3. Profilaktik tekshiruvlar o'tkazish va nosozliklarni bartaraf etish bo'yicha talablar qo'yish.
		Ko'nikmalar:
		Iste'molchilarga gazdan xavfsiz foydalanish bo'yicha tushuntirish berish.
		Korxona va tashkilotlar bilan nazorat ishlarini muvofiqlashtirish.
		Kelib chiqqan muammolarda o'zaro kelishuv va dalilli tushuntirish olib borish.
		Bilimlar:
		Gaz jihozlari va quvurlarini profilaktik xizmatdan o'tkazish asoslari.
		Germetiklik tekshiruv usullari va ta'mir talablari.
		Gaz tizimini ishchi holatda saqlash bo'yicha texnologiyalar.
	D3.02.5 — Iste'molchilar tomonidan tabiiy gazdan oqilona foydalanishni nazorat qilish, tabiiy gazdan nooqilona yoki noqonuniy foydalangan iste'molchilarni aniqlash.	Mehnat harakatlari:
		1. Xonadon va korxonalarda gaz jihozlari va hisoblagichlarning soz holatda ishlayotganligini nazorat qilish.
		2. Gazdan noqonuniy foydalanish holatlarini nazorat qilish.
		3. Plombalarning butligi nazorat qilish.
		Ko'nikmalar:
		Gaz ta'minoti tizimini kompleks tekshirishni tashkil etish.
		Gazdan noqonuniy foydalanish holatlarini tahlil qilish va bartaraf etish.
		Aniqlangan kamchiliklar bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.
		Bilimlar:
		Tekshiruv aktlari va bayonnomalarini to'g'ri tuzish qoidalari.
		Hisoblagich ko'rsatkichlari va hisobotlarni tahlil qilish.

		Nosozliklar va qonunbuzarlik holatlarini rasmiylashtirish tartibi.
	Mas’uliyat va mustaqillik:	1. Xavfli vaziyatda tezkor evakuatsiya choralarini amalga oshirish.
		2. Gaz hisoblagichlar va jihozlarni mustaqil tekshirish.
		3. Olingan ma’lumotlar asosida mustaqil hisobot tayyorlash.
Texnik va/yoki texnologik talab		Gaz quvurlari, ulanish nuqtalari, va muhrlash elementlarining texnik holati doimiy nazorat ostida bo’lishi. Nazorat ishlari faqat belgilangan ruxsat va yo’riqnomalar asosida bajarilishi. Gaz tarmoqlari va iste’molchi jihozlarini reja asosida va navbatdan tashqari ko’rikdan o’tkazish. Tekshiruv natijalarini dalolatnoma va nazorat jurnallarida rasmiylashtirish.

Kasbning nomi:	Metrologiya bo'yicha muhandis (Gaz xo'jaligi iste'molchilariga xizmat ko'rsatish sohasida)	
Mashg'ulot nomining kodi:	21415	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Malakani baholash markazida tavsiya etilmaydi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Gaz xo'jaligi iste'molchilariga xizmat ko'rsatish sohasida kamida 3 yillik ish tajribasi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish asoslarini chuqur bilish, fizik kattaliklar va ularning o'lchov birliklari, o'lchash xatoliklari, aniqlik va ishonchlilik tushunchalari, kalibrlash va verifikatsiya usullari, o'lchov vositalarining tuzilishi va ishlash prinsiplari	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	1) bakalavriat 2) o'rta maxsus professional ta'lim va amaliy tajriba	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:		
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	7	Bosh metrolog
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
E1.6 — O'lchov nazorat pribor va avtomatika vositalarini ishlatish	E1.01.6 — O'lchov nazorat priborlarni ishlatish texnologik jarayonlarda to'g'ri qo'llash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Gaz hisoblagichlar (schyotchiklar), datchiklar va manometrlarni tekshirish.
		2. O'lchash vositalari va jihozlarni kalibrlash qilish (qiyoslash).
		3. Asboblarning to'g'ri ishlashini metrologik tekshiruvdan o'tkazish.
		Ko'nikmalar:
		Gaz hisoblagichlar (schyotchiklar), bosim datchiklari, manometrlar va sensorlar bilan ishlash.
		O'lchash vositalarini kalibrlash qilish va qiyoslash metodlarini amalga oshirish.
		Asboblarning metrologik holatini tekshirish va to'g'ri sozlash.
		Bilimlar:
		Metrologiyaning nazariy asoslari: aniqlik, xatolik, noaniqlik tushunchalari.
		O'lchash vositalari turlari va ularning metrologik xususiyatlari.
		Kalibrlash, qiyoslash va davlat metrologik tekshiruv qoidalari.
		Mehnat harakatlari:

	E1.02.6 — Oʻrta murakkab darajasidagi sxemalarni ishlatish	1. Oʻlchash asboblari xavfsiz sharoitda ekspluatatsiya qilish.
		2. Gaz bilan ishlashda xavfsizlik qoidalari va yoʻriqnomalariga amal qilish.
		3. Asboblarni oʻrnatish yoki tekshirishda avariya xavfini kamaytirish choralari.
		Koʻnikmalar:
		Oʻlchash xatolarini aniqlash va ularni kamaytirish yoʻllarini bilish.
		Oʻz DSt va ISO/IEC 17025 kabi metrologik standartlar talablarini bilish.
		Gaz sohasiga oid meʼyoriy-huquqiy hujjatlar bilan ishlash koʻnikmasi.
		Bilimlar:
		Gazning fizik va kimyoviy xususiyatlari (bosim, harorat, zichlik, tarkib).
		Gaz hisoblagichlar, sensorlar, manometrlar va turli oʻlchash asboblari ish prinsipi.
		Gaz tarqatish va hisoblash tizimlarining tuzilishi.
	Masʼuliyat va mustaqillik:	1. Oʻz DSt, ISO va GOST talablariga toʻliq amal qilish.
		2. Metrologik tekshiruv hujjatlarini qonuniy asosda rasmiylashtirish.
		3. Gaz hisoblagichlarini qiyoslash va kalibrlashdan mustaqil oʻtkazish.
E2.6 — Avtomatik qurilmalar va nazorat oʻlchov asboblari soz holatda ishlashini nazorat qilish	E2.01.6 — Nosozlik sababini aniqlash va bartaraf qilish boʻyicha oʻrnatilgan tartibda ishlarni tashkil qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Gaz hisoblagichlar va nazorat vositalariga profilaktik xizmat koʻrsatish.
		2. Oʻlchash vositalarida nosozliklarni aniqlash va ularni taʼmirlash
		3. Asboblarni ishchi holatda saqlash uchun rejali tekshirishlar oʻtkazish.
		Koʻnikmalar:
		Gaz hisoblash tizimlari uchun sertifikatlash va davlat tekshiruvi talablarini tushunish.
		Oʻlchash natijalarini tahlil qilish va xatolik koeffitsiyentlarini hisoblash.
		Kalibrlash yoki tekshiruv boʻyicha aktlar, dalolatnomalar va hisobotlar yozish.
		Bilimlar:
		Oʻz DSt standartlari (gaz hisoblagichlar, metrologik nazorat talablari).
		ISO/IEC 17025 (kalibrlash va laboratoriya ishlari).
		Gaz sohasiga oid xalqaro standartlar (ISO, GOST, EN).
	E2.02.6 — Avtomatik qurilmalar va nazorat oʻlchov asboblari yordamida tashxislash	Mehnat harakatlari:
		1. Gaz hisoblagichlar va nazorat vositalariga profilaktik xizmat koʻrsatish.
		2. Oʻlchash vositalarida nosozliklarni aniqlash va ularni taʼmirlash.
		3. Asboblarni ishchi holatda saqlash uchun rejali tekshirishlar oʻtkazish.

		Ko'nikmalar:
		Gaz o'lchash vositalarida nosozliklarni aniqlash va oddiy ta'mir ishlarini bajarish.
		Asboblarni rejali profilaktika va texnik xizmatdan o'tkazish.
		Gaz bilan ishlashda xavfsizlik qoidalarini to'liq bilish va qo'llash.
		Bilimlar:
		Gaz oqimini hisoblash, o'lchash xatolarini aniqlash.
		O'lchash natijalarini tahlil qilish va matematik ishlov berish.
		Avtomatlashtirilgan hisob tizimlarini ishlatish.
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Dalolatnoma, akt va metrologik jurnallarni mustaqil rasmiylashtirish.
		2. Kalibrlash va tekshiruv natijalarini to'g'ri yozish.
		3. Hisobotlarning haqqoniyligi va shaffofligi.
E3.6 — Avtomatika qurilmalar va nazorat o'lchov asboblari texnik xizmat ko'rsatish	E3.01.6 — Avtomatik qurilma va o'lchov – nazorat vositalarni ishlatish uchun sharoit yaratib berish	Mehnat harakatlari:
		1. Gaz oqimini aniqlash va hisobga olish usullarini ishlab chiqish.
		2. Yangi asboblarni uchun qiyoslash va tekshirish metodikasini tayyorlash.
		3. Gazning bosimi, harorati va tarkibi bo'yicha o'lchash metodlarini tanlash.
		Ko'nikmalar:
		Avariya holatlarida to'g'ri harakat qilish ko'nikmasi.
		Gaz uskunalarni to'g'ri montaj va demontaj qilish.
		Ishchi guruh bilan hamkorlikda metrologik tekshiruvlar tashkil qilish.
		Bilimlar:
		O'lchash vositalari montaji, sozlanishi va texnik xizmat qoidalari.
	E3.02.6 — Ta'mirlangan o'lchov nazorat vositalarni va avtomatik uskunalarni ishlashini nazorat qilish	Asboblarda nosozliklarni topish va oddiy ta'mir ishlarini amalga oshirish.
		Zamonaviy o'lchash uskunalari (elektron sensorlar, intellektual gaz hisoblagichlar) bilan ishlay olish.
		Mehnat harakatlari:
		1. Gaz hisoblagichlarni davlat metrologik tekshiruviga tayyorlash.
		2. O'lchash vositalarini sertifikatlash uchun zarur hujjatlarni tayyorlash.
		3. Metrologik talablar va standartlarga rioya qilinishini nazorat qilish.
		Ko'nikmalar:
		Asboblarni resurslarini samarali boshqarish.
		Jamoadan texnik masalalarni muhokama qilish va hal etish.
		Kompyuter dasturlari (MS Excel, maxsus metrologik soft) bilan ishlay olish.
		Bilimlar:
		Gaz bilan ishlashda xavfsizlik qoidalari va avariya holatlarida harakat qilish tartibi.

		Gaz chiqindilarini va havoga zararli moddalar tarqalishini nazorat qilish usullari.
		Sanitariya va ekologik talablar.
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Nosozlik yoki avariya holatlarida tezkor va mustaqil chora ko'rish.
		2. O'lchash vositalari va jihozlarni kalibrlash qilish (qiyoslash).
		3. Asboblarning to'g'ri ishlashini metrologik tekshiruvdan o'tkazish.
Texnik va/yoki texnologik talab		O'lchashlar birligini ta'minlash sohasidagi milliy va xalqaro me'yoriy hujjatlar, davlat standartlari, texnik reglamentlar va metrologik qoidalarni bilish va ularga rioya etish. O'lchash vositalarining texnik holati, aniqlik sinfi va qo'llanish doirasining belgilangan talablarga muvofiqligini ta'minlash. Metrologik nazorat va tekshiruv jarayonlarini amaldagi normativ hujjatlar asosida tashkil etish. O'lchash natijalarining ishonchliligi, takrorlanuvchanligi va aniqligini ta'minlash. O'lchash vositalarini ekspluatatsiya qilishda texnik xavfsizlik va mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etish.

V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

5.1. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxona)lar to'g'risida ma'lumot

T/r	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1.	"Hududgazta'minot" AJ boshqarma boshlig'i	Achilov Dilshod Marufovich
2.	"Hududgazta'minot" AJ bo'lim boshlig'i	Farmonov Shuxrat Baratovich
3.	"Hududgazta'minot" AJ bo'lim boshlig'i	Atabayev Elyor Odiljonovich
4.	"Hududgaz Toshkent" GTF bo'lim boshlig'i	Niyazmetov Shavkat Riskibekovich
5.	"Hududgaz Sirdaryo" GTF bo'lim boshlig'i	Xoliqberdiyev Ikrom Mamayusupovich
6.	"Hududgaz Namangan" GTF bo'lim boshlig'i	Abdulazizov Abdulbosit Abdulboqi o'g'li